O‘qish savodxonligi

1

II qism



novda
edutainment

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

U.B.Aydarova

O‘qish savodxonligi

1-sinf

II qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

novda
edutainment

Toshkent – 2023

TASDIQLANGAN
FOYDALANISHGA QARSHI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№_____
"____"_____20____y.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K 808.545(075.3)
KBK 74.202.5ya72
A 38

Aydarova U. B., Azizova N. K.
O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. II qism. / U.Aydarova, N.Azizova. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahar 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
M. M. Umarova – Toshkent shahar 222- umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



Yodda saqlang



Savollarga javob bering



Juftlikda ishlang



Izohli lug'at



Diqqat bilan o'qing



Gaplarni to'ldiring



Bu – qiziq!



Topshiriqni bajaring



Uyga vazifa



Tinglang

ISBN 978-9943-9709-2-2

© U.B. Aydarova, N.K. Azizova
© "Novda Edutainment", 2023

V bo‘lim.
U – kim, bu – nima?



Buyuk ajdodlar – bizning faxrimiz

Bizning yurtimiz buyuk alloma, sarkarda, shoir va mutafakkirlar vatanidir. Biz Vatanimiz nomini dunyoga tanitgan Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarning avlodlarimiz.



Al-Xorazmiy – matematika fani asoslariga xissa qo‘shgan.

Sharqda dastlabki globuslardan birini bobomiz Abu Rayhon Beruniy yaratgan.





Abu Ali ibn Sino bobomiz tibbiyot ilmiga ulkan xissa qo‘shgan.

Bobolarimiz qilgan olamshumul ishlarni biz ham davom ettirishimiz mumkin. Biz ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz!

Savollarga javob bering.

1. Matnda qaysi allomalarimizning nomi tilga olingan?
2. Ular haqida yana qanday ma'lumotlarni bilasiz?
3. Ajdodlarga munosib avlod bo'lishimiz uchun nima qilishimiz kerak?

Izohli lug'at:

ajdod – ota-bobolar

Topshiriqni bajaring.

1. Matnning har bir qismini alohida o'qing. Ularga sarlavha toping.
2. Vatanimiz nomini dunyoga tanitgan ajdodlarimiz nomi tilga olingan gapni topib o'qing.

Yodda tuting!

Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir.

Abu Rayhon Beruniy

Matnni o'qib, mazmunini so'zlab bering.

Amir Temur – sarkarda, adolatli shoh, davlat arbobi bo‘lgan. Bobomiz buyuk davlatga asos solgan. Ona yurtimiz Turkiston diyorini butun dunyoga tanitgan.


Temur bobom

Amir Temur
Ulug‘ bobo,
So‘zi durga
To‘lig‘ bobo.

U arbob ham,
Lashkarboshi,
Sevgan elning
Keksa-yoshi.

To bor dunyo,
To bor hayot,
Temur bobom
U – barhayot.

Erkin Qambar



Savollarga javob bering.

1. She’rda Amir Temur bobomiz qanday so‘zlar bilan ta’riflangan?
2. *“So‘zi durga to‘liq bobo”* deganda nimani tushundingiz?
3. Amir Temur bobomiz ona yurt rivoji uchun qanday xizmatlar qilgan?
4. Sizningcha, bobomizning qaysi xislatlari olamga mashhur bo‘lishida yordam berdi?

Izohli lug‘at:

sohibqiron – qudratli hukmdor, Amir Temurning sharafli unvoni
shon – erishilgan hurmat, obro‘

Amir Temur o‘gitlarini o‘qing.

- **Yaxshini yomon kunda sina.**
- **Birliksiz kuch bo‘lmas.**
- **Kuch – adolatda.**
- **Qo‘rqmasang, yov qochar.**



She’rni yod oling.

Tasavvur qiling, do‘stingiz boshqa joyga ko‘chib ketdi. Siz unga zarur ma’lumotni qanday yetkazgan bo‘lardingiz?

Xabarlarni yetkazamiz

Hozirgi kunda uyali aloqa vositalari orqali dunyoning xohlagan burchagiga xabar jo‘nata olasiz. Mobil telefonlar yaratilmasidan oldin odamlar bir-biri bilan qanday xabarlashgan deb o‘ylaysiz?

Bilasizmi, bunda odamlarga xat tashuvchi kabutarlar yordam bergan. Kabutar o‘z yo‘nalishini yo‘qotmasdan uzoq joylarga xabar olib borishga o‘rgatilgan.

Shoshilinch ma’lumotlarni esa otliq xabarchilar yetkazishgan. Ularni choparlar deb atashgan.

Keyinchalik odamlar xat yozib, uni xatjildlarga solishgan. Pochta xizmati orqali kerakli manzilga jo‘natishgan. Bu xatlar ma’lum vaqt ichida egasiga yetib borgan.

Olimlar telegraf qurilmasini ixtiro qilgandan so‘ng yozma xabarlar manzilga tez yetib

borgan. Telefon yaratilgach, xabarni og‘zaki yetkazish imkoni paydo bo‘ldi.

Siz xabarlarni qanday jo‘natasiz?











Savollarga javob bering.

1. Matndan qanday ma’lumotlarni bilib oldingiz?
2. Uzoq masofaga xabar jo‘natishning qanday usullari bo‘lgan?
3. Siz xabar jo‘natishning yana qanday yo‘llarini bilasiz?

Izohli lug‘at:

xatjild – ichiga xat solib, biror joyga yuborish uchun ishlatiladigan qog‘oz paket
qurilma – texnik moslama

Topshiriqni bajaring.

Matndan quyidagi tushunchalarni ifodalagan gaplarni topib o‘qing.
Kabutar, chopar, pochta xizmati, telegraf.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Bu – qiziq!

Hozirgi telefonlar yaratilgunga qadar ular turli ko‘rinishda bo‘lgan.



- Telefon qanday imkoniyatlarga ega?
- Telefondan to‘g‘ri foydalanish qoidalarini ishlab chiqing.
- Fikrni yakunlang.
  Telefon foydali ixtiro, chunki…

Matnni o‘qib, mazmunini so‘zlab bering. Muloqot vositalari haqida ko‘proq ma’lumotlar topishga harakat qiling.

Osmondagi yulduzlarni kuzatganmisiz? Ular haqida nimalarni bilasiz?



Bu – qiziq!

Yulduzlar bizga mitti bo‘lib ko‘rinadi. Aslida ular shar shaklidagi ulkan olovdir. Koinotda qizil, sariq, oqish va ko‘kimtir rangdagi yulduzlar uchraydi. Eng issiq yulduzlar oqish va ko‘kimtir rangdagi yulduzlardir.

Quyosh – Yerga eng yaqin bo‘lgan sariq rangdagi yulduz.



Yulduzlar

Oftob o‘chib,
Ketdi kunduz.
Ko‘kka ko‘chib,
Chiqdi yulduz.

Nurin tarab
Keng osmonga.
Yulduz qarab
Men tomonga.

Qiqir-qiqir
Etib kular,
Men-la suhbat
Qurmoq bo‘lar.

– Kel, yulduzjon
Gaplashamiz,
Bo‘lib shodon
Kuylashamiz:

– Osmon bo‘lsin
To‘la yulduz,
Uni ko‘rib
Quvonsin ko‘z.

O‘xshaymiz, bil,
Biz o‘zimiz –
Ona-zamin
Yulduzimiz.

Onalar-chi,
Bizni shundan,
Yulduzim, deb
Sevar dildan.

Barcha yulduz
Bo‘lsin omon.
Kulsin zamin,
Kulsin osmon!

G‘ulom Shomurod

Izohli lug‘at:

osmon – samo, falak, ko‘k



Savollarga javob bering.

1. She'r kimning nomidan aytilgan?
2. Ona zamin yulduzlari haqida nima deya olasiz?
3. Yulduzchalarga o'xshash jihatingiz nimada deb o'ylaysiz?



Topshiriqni bajaring.

- *"Yulduz"* so'zi ishtirok etgan to'rtliklarni o'qing.
- She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlang.



Bu – qiziq!

Osmon jismlari haqidagi ma'lumotlarni bilib olishda olimlarga teleskoplar ko'maklashgan. Daniyalik ko'zoynak yasovchi ustalar shishalarni silliqlab, kuzatuv trubasi ixtiro qilgandan so'ng teleskop paydo bo'lgan.



Fikrni yakunlang.

Men bugun darsda ... haqida bilib oldim.



She'r va matnlarni ifodali o'qing. Yulduzlar haqida qo'shimcha ma'lumotlar toping.

Mirzo Ulug‘bek buyuk olim va shoh edi. U Amir Temurning nevarasi bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek o‘n besh yoshidan boshlab yurtga podshohlik qilgan.

Samarqandda rasadxona qurdirgan. U yerda osmon, oy, yulduzlarni kuzatgan.



Mirzo Ulug‘bek

Rivoyat

Mirzo Ulug‘bek ovga chiqsa, qachon, qayerga chiqqanini va ov tafsilotlarini alohida daftarga yozib qo‘yar edi. Tasodifan o‘sha daftar yo‘qolib qoldi. Xizmatkorlar daftarni qancha qidirsalar ham topolmadilar.

– Tashvish tortmanglar, – dedi olim. – Men o‘sha daftarga yozilgan barcha ma’lumotlarni boshidan oxirigacha bilaman.

So‘ng kotiblarni chaqirtirib, barchasini aytib turdi, ular yozib oldilar. Yangi daftar to‘lgan ham ediki, ilgari yo‘qolgan daftar topilib qoldi. Har ikkala daftarni solishtirib ko‘rib, ulardan hech qanday farq topa olmadilar.



Savollarga javob bering.

1. Mirzo Ulug‘bek kim bo‘lgan?
2. U daftariga nimalarni yozib qo‘yar edi?
3. Nima uchun daftar qayta yozildi?
4. Nega ikkala daftar solishtirilganda hech qanday farq topilmadi?

Izohli lug‘at:

tafsilot – ma’lumot
kotib – yozuv ishlarini olib boruvchi shaxs

Rivoyatdan quyidagi so‘zlar bilan boshlanadigan gaplarni topib o‘qing.

Mirzo Ulug‘bek ovga...

Yangi daftar ...

Men o‘sha...

Tasodifan o‘sha...

Har ikkala...



Rivoyatni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Koinot – sayyoramizni o‘rab turgan cheki va chegarasi yo‘q ulkan fazo. Bu fazoda yulduzlar harakatlanadi, ularning atrofida sayyoralar aylanadi, kometalar va meteoritlar uchadi.



Yer – bu biz yashayotgan sayyora. U Quyosh sistemasida uchinchi o‘rinda turadi. Koinotdan qaraganda moviy to‘pga o‘xshaydi.

- **Siz fazoga parvoz qilishni xohlaysizmi? Nima uchun?**

Fazogirlar

Merkuriydan yo Marsdan
Kelyapsanmi, Ahmad?
Neptundan Nor shoshib keldi,
Olib keldi senga xat.
Yupiterdan xabar keldi,
U yerga uchar Zahro.
Oy bekasi, Yer bekasi –
Keyingi bekat Zuhro.
Hozircha bu orzudir,
Ammo oldda kelajak.
Yaqin kunda barcha inson,
Rost, fazogir bo‘lajak.
Fazo bizning qo‘limizga
Kalitini tutadi.
Evaziga bizdan mehr,
Ezgulikni kutadi.

Kavsar Turdiyeva







Savollarga javob bering.

1. She’rda bolalar haqida nima deyilgan?
2. She’rda qaysi sayyoralarning nomi tilga olingan?
3. Sizningcha, har qanday inson koinotga parvoz qila oladimi? Nima uchun?

Izohli lug‘at:

Zuhro – Venera sayyorasi
fazo – koinot

Topshiriqni bajaring.

- She’rdan quyidagi so‘zlar ishtirok etgan misralarni o‘qing.
  Ahmad, Nor, Zahro

Bu – qiziq!

Fazogirlar – fazoviy sayohatchilar. Ular fazoda ba’zan bir necha oy, hatto undan ziyod yashaydilar va ishlaydilar. Fazogirlar parvozdan oldin maxsus tayyorgarlikdan o‘tadilar.

Ular kosmik kema yordamida koinotga parvoz qiladilar.



She’rni ifodali o‘qing. Mavzuga mos rasm chizing.



Zahiriddin Muhammad Bobur – podshoh, shoir, olim bo‘lgan. U Andijon shahrida tug‘ilgan. Bobur Amir Temurning avlodi bo‘lgan. Otasi Umarshayx Mirzoning bevaqt o‘limidan so‘ng, 12 yoshida taxtga o‘tirgan. Hindistonda shohlik qilgan.

Ona sabog‘i

Yoz oxirlab borayotgan damlar. Osmon ko‘zguday tiniq, musaffo. Yetti yashar mitti Zahiriddin onajonisining yonginasida. Ona-bola o‘zaro suhbatlashadilar. Hozir farzandi derazadan ko‘kka boqib qolgan. U osmondagi uyum-uyum paxtani eslatuvchi bulutlarga javdirab qarardi.

– Onajon, – dedi jajji Bobur, – bulutlarni qo‘l bilan ushlab bo‘ladimi?

– Bolajonim! – jilmaydi onasi. – Momiq emaski, qo‘l bilan tutib bo‘lsa. Ular suv zarralari-ku. Faqat bug‘ holatida. Bug‘lardan esa bulutlar paydo bo‘ladi. Ular yomg‘ir yoki qorga aylanib yog‘ayotgandagina qo‘lingizni tutsangiz...

– Haaa, angladim, angladim...

G‘iyos Komilov

Savollarga javob bering.

1. Asar qahramonlari kimlar?
2. Bobur va onasi nimalar haqida suhbatlashdilar?
3. Nega bulutlarni qo‘l bilan tutib bo‘lmaydi?

Izohli lug‘at:

javdirab qaradi – termilib qaradi
damlar – lahza, payt
ko‘kka boqib – osmonga boqib
momiq – yumshoq
angladim – tushundim

Quyidagi so‘zlar ishtirok etgan gaplarni topib o‘qing.

mitti **javdirab** **momiq** **musaffo**


- Ona va bola suhbatini rollarga bo‘lib o‘qing.

Topishmoqning javobini toping.

Makoni – osmon, dengiz,
Kemadek suzar izsiz.

Rivoyat mazmunini so‘zlab bering.

Rasmni kuzating.



- Suv tomchilarining sayohati haqida eshitganmisiz?
- Ular qayerlarda sayohat qilishadi deb o‘ylaysiz?

Tabiatda suvning aylanishi

Okean, dengiz, daryo yuzasi qiziganda suv bug‘lanadi va parga aylanadi. Par osmonga ko‘tariladi. Suv tomchilari birlashib, bulut hosil bo‘ladi. Shamol esa ularni har tomonga yoyadi. Bulut ichidagi suv ko‘paygan sari og‘irlashadi va pastga harakatlana boshlaydi. Tomchilar esa yerga yomg‘ir, jala, do‘l, qor ko‘rinishida tushadi. Ular daryo va ko‘llarga quyiladi. Keyin yana bug‘lanadi. Tabiatda suv aylanishi shunday yuz beradi.

Bilasizmi, bulutlarning bir qancha turlari bor. Eng baland bulutlar “nurlanuvchi bulutlar” deb ataladi. Undan keyin “sadaf bulutlar” keladi.

Bulutning yana “patsimon bulutlar”, “qat-qat bulutlar”, “to‘p-to‘p bulutlar”, “yomg‘irli bulutlar” kabi turlari bor.

Savollarga javob bering.

1. Tabiatda suvning aylanishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Bulutlarning turlari haqida eshitganmisiz?
3. Ularning qanday turlarini bilib oldingiz?

Izohli lug‘at:

okean – eng katta suv havzasi
par – bug‘ning umumiy ko‘rinishi

Matnning har bir qismini alohida o‘qing. Qismlarga sarlavha qo‘ying.

- Tabiatda suvning aylanishiga qisqacha ta’rif bering.



Hech qachon bir-biriga o‘xshash ikkita bulut bo‘lmaydi. Ular doimo o‘z shaklini o‘zgartirib turadi. Bu ular joylashgan balandlik va haroratga bog‘liq.

Matnni o‘qing. Sizga yoqqan ma’lumotni rasmda ifodalang.

Rasmlarni so‘z bilan ifodalab, maqolni o‘qing.

 – qo‘rqoq,  – botir.

- Maqolning mazmunini tushuntiring.
- Rostdan ham shunday bo‘lishi mumkinmi? Nima uchun?

Qo‘llaringiz qanaqa?

Qizg‘anchiq bo‘lmasa kim,
Uni “ochiqqo‘l” derlar.
Hunari bor bolani –
“Ikki qo‘li gul” derlar.
Tanbeh bersalar oyim:
– Ozoda yur, toza bo‘l!
Tarbiyada har doim,
Deyman, onam “qattiqqo‘l”
Opam pishirsa ovqat,
Maqtashar “qo‘li shirin”.
Kimning “qo‘li kalta”dir,
Yana kimniki “uzun”...
“Qo‘li botir”, “Qo‘li zar” –
Nega qo‘llar shunaqa?
Ochib ko‘ring kaftingiz,
Qo‘llaringiz qanaqa?

Dilfuza Kamoljonova

Savollarga javob bering.


1. She’rda qanday qo‘llar haqida gapirilgan?
2. Ayting-chi, nega qo‘llarni shunday ataymiz?
3. O‘ylab ko‘ring, “qo‘li uzun”, “qo‘li kalta”, “qo‘li zar”, “qo‘li botir” so‘z birikmalari kimga nisbatan ishlatiladi?
4. Kaftingizni kuzatib, qo‘llaringizga qanday ta’rif berasiz?

Izohli lug‘at:

tanbeh – koyish, ogohlantirish

Topshiriqni bajaring.

- Berilgan so‘zlarga she’rdan qarama-qarshi ma’noli so‘zlar toping: *saxiy, kir, qo‘rqoq.*
- She’rda ishtirok etgan qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni toping.
- Doira atrofida yashiringan so‘zni toping.



She’rni ifodali o‘qing. Oila a’zolaringizning qo‘llari haqida nima deya olasiz?

Savollarga javob bering.

1. Bo‘limdan nimalarni bilib oldingiz?
2. Qaysi asar yoki she’r sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?

Quyoshning rasmini chizing. Uning o‘rtasiga “Ajdodlar” so‘zini, nurlariga esa ularning ismlarini yozing.

- Quyidagi ma’lumotlar qaysi ajdodimizga tegishli ekanini ayting.

1. **Buyuk sarkarda...**
2. **Tibbiyot ilmiga asos solgan...**
3. **Matematika fanining asosini yaratgan...**
4. **Yulduzlar ilmini o‘rgangan...**
5. **12 yoshda taxtga o‘tirgan...**
6. **Turkiston elini dunyoga tanitgan...**
7. **Globusni yaratgan...**
8. **Amir Temurning nevarasi...**

She’rdagi o‘zgarishni aniqlang.



O‘xshaymiz, bil,
Biz o‘zimiz –
O‘zbek nomin
Burkab shonga,
Ona-zamin
Taratgan u
Yulduzimiz.
Keng jahonga.

Quyidagi tushunchalarni izohlang.

yulduzlar	fazogir	sayyora
quyosh	bulut	Suvning sayohati

- Fikrni yakunlang.
  Bo‘limda menga ... yoqdi.

Atrofimizni o‘rab turgan olam haqida qiziqarli ma’lumotlar to‘plang.

VI bo‘lim.
Xalq og‘zaki ijodi – behisob xislat koni



Rasmlar qaysi ertakdan olingan?





Bu ertaklar dono xalqimiz tomonidan yaratilgan. Ertaklarda xalq orzu-istaklari, ming yillik tajribasi, donoligi ifodalangan. Adolat va haqiqat ulug‘langan. Siz ertaklardan ko‘plab insoniy fazilatlarni o‘rganasiz. U sizni yaxshilikka yetaklaydi.

Shakardan shirin

O‘tgan zamonda bir kambag‘al chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning yakka-yu yagona farzandlari bo‘lgan ekan. Kambag‘al chol o‘z oilasini o‘tinchilik qilib boqarkan. Ammo kunlar o‘tib, chol olamdan o‘tibdi. Tez orada o‘g‘li katta yigit bo‘libdi. Bir kuni u o‘tin terishga jo‘nabdi. Kechgacha yantoq o‘ribdi. Rosa charchabdi. Qorni ham ochibdi. Belbog‘idagi tugunchani ochib, unda, holva emas, yana zog‘ora non borligini ko‘rib, noiloj

zog‘orani yeya boshlabdi. Zog‘ora non unga bu safar juda mazali tuyulibdi. Ishtaha bilan yeb qo‘yganini o‘zi ham sezmay qolibdi.

O‘g‘il bu holning sirini onasidan so‘raganda, onasi unga:

– Mehnat qilib yeyilgan non shakardan shirin bo‘ladi! – deb javob beribdi.



Savollarga javob bering.

1. Ertak nima haqida ekan?
2. Ayting-chi, nega o‘g‘ilga zog‘ora non mazali tuyulibdi?
3. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Izohli lug‘at:

zog‘ora non – makkajo‘xori unidan tayyorlangan non

Voqealar rost yoki yolg‘on ekanini aniqlang.

1. Cholning uchta farzandi bo‘lgan ekan.
2. Kambag‘al chol o‘z oilasini o‘tinchilik qilib boqarkan.
3. Bir kuni o‘g‘li o‘tin terishga jo‘nabdi.
4. U belbog‘idagi tugunchani ochib qarasa, holva bor ekan.
5. Zog‘ora non unga bu safar juda mazali tuyulibdi.

- Ertakdan onaning gapini topib o‘qing.

Ertak mazmuniga mos maqollarni aniqlang.

Oz gapir – soz gapir.

**Mehnat qilib topganing,
Qand-u asal totganing.**

**Mehnatli non – shakar,
Mehnatsiz non – zahar.**

Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Ertak – yolg‘on to‘qima,
Hikmatga boydir biroq.
Ma’no-mazmunida
Yoshlarga bordir saboq!



- Yuqoridagi misralarni qanday tushundingiz?
- Siz qanday ertaklarni bilasiz?
- Ertaklar qanday yaratiladi deb hisoblaysiz?

“Aql va boylik” audioertagini diqqat bilan tinglang.

1

Savollarga javob bering.

1. Cholning nechta o‘g‘li bor edi?
2. U o‘g‘illariga nima dedi?
3. Katta o‘g‘il otasiga nimani ko‘rsatdi?
4. Ikkinchi va uchinchi o‘g‘illar-chi?
5. Ayting-chi, nima uchun chol merosini kenja o‘g‘ilga qoldiribdi?
6. *“Boy odamda aql ham bo‘ladi”*, degan fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?
7. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Quyidagi gap qaysi qahramonga tegishli ekanini aniqlang.

– Kimki aqlli va davlatmand bo‘lsa, u menga merosxo‘r bo‘ladi. Har qaysingiz menga aqlli va davlatli ekanligingizni ko‘rsating.

– Mana zumrad ko‘zli oltin uzugim, boy odamda aql ham bo‘ladi.

– Mening zarbof choponimni ko‘rgan kishi boyligimga va aqlimga qoyil qoladi.

– Hech kim umrida kumush va javohirlar qadalgan bunday kamarni ko‘rgan emas.


– Menda zumrad ko‘zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo‘q. Lekin mehnatkash qo‘lim, botir yuragim, aqlli boshim bor.

Izohli lug‘at:

davlatmand – boyligi ko‘p

zarbof – zar qo‘shib to‘qilgan

Rasmlarni kuzating. Qaysi o‘g‘ilga tegishli ekanini ayting.



Siz do‘stingizga yana qanday ertaklar o‘qishni tavsiya qilasiz? Sevimii ertagingiz haqida so‘zlab bering.

Zehnimiz o‘tkir bo‘lar,
Topishmoqni topsak gar.

O‘zi bir kichik narsa,
Kerak bo‘lar har darsda,
Chizib qo‘ysang noto‘g‘ri,
Yo‘q qiladi birpasda.

Oq yer ochdim,
Qora bug‘doy sochdim.
Tariqday kichkina xol,
Gapni tugatar darhol.

Ongimizga nur sochar,
Sirlar eshigin ochar.

O‘rtog‘im – ruchka, qalam,
Bir chiziq, katak – dalam.

- O‘zingiz ham topishmoq to‘qishga harakat qiling.
- Biror narsa haqida o‘ylang. Uning nomini aytmasdan belgilari haqida ma’lumot bering.

Qanday qilib topishmoq o‘ylab topish mumkin?

Narsa-buyumni tanlang	U qanday?	Nimaga o‘xshaydi?	Belgilarni birlashtiring va topishmoq tuzing

Masalan:

Mevalardan biri u,
Qizil, yashil, sariqdir.
Karsillaydi yesangiz,
Dumaloq shaklidadir.

O‘git, hikmatlari bor,
Maqollarni o‘qib ko‘r.

1. Gap bilguncha ish bil.
2. Do‘st do‘stga qalqon.
3. Bola aziz, odobi undan aziz.
4. Ko‘p o‘qigan ko‘p bilar.
5. Yaxshilik nur keltirar,
   Yomonlik – zulmat.

- Maqollarning mazmunini izohlang.
- Siz yana qanday maqollar bilasiz?



Tez aytishni aytamiz,
Burro, aniq so‘zlaymiz.

Zanjir, tandir, anjir.

Tohir tungacha to‘p tepdi.

Shirin sharbatning shirasi shakardan shirin.

Gulnor gulzor oralab gullarni saraladi.

Non yasashasizmi,
Sholi sanashasizmi?

- Tez aytish musobaqasini o‘tkazing.



Qiziqarli topishmoqlardan toping.

Harakatda barakat



Bir o‘rmonga o‘t ketibdi. Jonivorlarning bir qismi kuchlari yetgan narsa bilan suv tashib, o‘tni o‘chirmoqchi bo‘libdi. Ikkinchi qismi esa, bundan hech narsa chiqmaydi, debdi va chetroqqa chiqib tomosha qilib turibdi.

Bir chumoli o‘tni o‘chirish uchun hovuchida suv olib ketayotgan ekan. Buni ko‘rgan qarg‘a uning ustidan kulib debdi: “Mana shu suving bilan olovni o‘chiraman, deb o‘ylayapsanmi?”

Chumoli unga javob beribdi: “Bilaman, bu suv bilan o‘tni o‘chirib bo‘lmaydi. Lekin men bu harakatim bilan kim tomonda turganimni bilaman”.

“Tarbiya kitobi”dan

Savollarga javob bering.

1. O‘rmonda qanday voqea yuz beribdi?
2. Nega qarg‘a chumolining ustidan kulibdi?
3. Siz chumolining o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lardingiz? Nima uchun?
4. Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

Izohli lug‘at:
Chumolini yana qumursqa deb ham aytishadi.

Topshiriqni bajaring.

- O‘rmonga o‘t ketganda jonivorlar nima qilganini ayting.

1-qism **2-qism**

- Rivoyatdan qarg‘a va chumolining gaplarini topib o‘qing.
- Qahramonlarga ta’rif bering.

Topishmoqni o‘qing va mazmunini izohlang.

Kichkina mitti,
Qo‘limga olsam,
Qovurg‘asi sinib ketdi.



Rivoyatni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Siz yana qanday rivoyatlarni bilasiz? Qahramonlarini rasmda ifodalang.

Pufakchalardagi quvnoq harflardan so‘zlar hosil qiling.





- Siz qo‘shiq kuylashni yaxshi ko‘rasizmi?
- Qo‘shiqlarning inson kayfiyatiga ta’siri qanday deb o‘ylaysiz?

Boychechak

2

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayrondir.
Ayroningdan bermasang,
Qozon-tovog‘ing vayrondir.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak.
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechagim xilloli,
Hamyon-hamyon tilloli,
Hamma bozor bir bozor,
Atroflari lolazor.



Savollarga javob bering.

1. Boychechak qaysi faslda gullaydi?
2. O‘ylab ko‘ring-chi, bu qo‘shiq qachon kuylangan?

Izohli lug‘at:

qatalab chiqqan – yorib chiqqan
baxmal – duxoba

Ma’nodosh so‘zlarni bir-biriga moslashtiring.


vayron	kesdilar
yumalab	xarob
chopdilar	mustahkam
qattiq	dumalab

- Shu so‘zlar ishtirok etgan satrlarni o‘qing.
- Qo‘shiqni tinglang. Birgalikda kuylang.

“Boychechak” qo‘shig‘ining qolgan qismini o‘rganing. Qo‘shiqni kuylashga harakat qiling.


Boychechakni tutdilar,
Simyog‘ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar
Baxmal bilan yopdilar.

Harflardan so‘zlar hosil qiling. Topgan so‘zlaringiz haqida ma’lumot bering.



- Ayting-chi, bu so‘zlarni nima birlashtirib turadi?

Berilgan chizma orqali yashiringan gapni topib o‘qing.



E	R	U	O	X	G	A	R	M	I
I	T	L	X	Sh	I	D	A	A	K
K	A	Z	A	N	L	V	U	T	L
O	K	P	Y	L	I	A	L	E	A
T	L	A	R	T	K	K	A	Y	R

Bo‘limda o‘rgangan ertaklaringizni ayting. Siz yana qanday ertaklarni bilasiz?

Bo‘g‘inlardan maqollarni hosil qiling va mazmunini izohlang.





- O‘rgangan maqollaringizdan ayting.

Rasmlarni so‘z bilan ifodalab, topishmoqni o‘qing.

1.  ichida 

 ichida  .

2. Qo‘tir 

Ichida  .

- Bilgan topishmoqlaringizdan ayting.
- Bo‘limni o‘rganish davomida yana qanday ma’lumotlarni bilib oldingiz?

“Ertaklar olamida” mavzusida rasm chizing.

VII bo‘lim.
Qanday yaxshi, bolalar, Go‘zal xulq, orastalik



Quyidagi harflardan so‘z tuzing.

OOBD

- “Odob” so‘zini qanday tushunasiz?

So‘z sehri

Har bir gap-u so‘zimiz –
Go‘yo oyna-ko‘zgumiz.
Aytgan har so‘zimizda,
Ko‘rinamiz o‘zimiz.

Qanday yaxshi so‘z-kalom,
Odob boshi “Assalom”.
Xush yoqadi hamma vaqt:
“Rahmat”, “Xo‘p-xo‘p”,
“Marhamat”.

Yayratadi dilingni,
Do‘stlarning “xush keling”i.
So‘nggi so‘z ham alomat:
“Xayr, bo‘ling salomat”.

Dilshod Rajab



Savollarga javob bering.

1. Odobning boshi nimada deb hisoblaysiz?

2. Siz, odatda, qanday sehrli so‘zlardan foydalanasiz?
3. Nima uchun sehrli so‘zlar hammaga yoqadi?



She’rdan sehrli so‘zlarni topib o‘qing.

- Bu so‘zlar qanday vaqtlarda qo‘llanishini ayting.
- She’rdan quyidagi so‘zlarga ma’nodoshini toping: *so‘z, jumla, oxirgi.*
- Shu so‘zlar qatnashgan misralarni topib o‘qing.
- Qofiyadosh so‘zlarni aniqlang.



Yusuf Xos Hojibning hikmatli so‘zini o‘qing. Mazmunini mavzuga bog‘lashga harakat qiling.

Shirin so‘z zilol suvga o‘xshaydi. Zilol suv qayerga oqib borsa, u yerdan anvoyi gullar o‘sib chiqadi.



Izohli lug‘at:

zilol – toza
anvoyi – rang-barang, turli-tuman



She’rni ifodali o‘qing.

Rasmni kuzating.



- Qachon qanday kiyinishni bilasizmi?

Eng qimmatli libos

Bir kuni Ardasher Bobak o‘g‘lining g‘oyat qimmatbaho kiyimlar kiyib olganini ko‘rdi. Uni yoniga chaqirib:

– O‘g‘lim, kishi shunday libos kiyishi kerakki, bunday libos hech bir xazinada bo‘lmasin, – dedi.

O‘g‘li undan:

– Ey ota, u qanday libos, nimadan tikiladi? – deb so‘radi.

– U shunday liboski, – javob berdi otasi, – matosi go‘zal xulq va ezgu ishdan, ipi esa murosa va sabrdan iborat bo‘ladi.

Kavsar Turdiyeva

Savollarga javob bering.

1. Ardasher Bobak o‘g‘lini nega chaqirdi deb o‘ylaysiz?
2. U o‘g‘liga nima dedi?
3. Otasi aytgan libos haqida siz qanday fikrdasiz?
4. O‘qiganlaringizdan qanday xulosa chiqardingiz?

Izohli lug‘at:

g‘oyat – juda
ezgu – yaxshi
murosa – o‘zaro kelishuvli munosabat

Juftlikda ishlang.

Rollarga bo‘lib o‘qing.



Yodda tuting!

Kiyimingiz ozoda va dazmollangan bo‘lsin. Poyabzalingizni doimo artib, tozalab yuring. Qayerda qanday kiyinish kerakligini bilib oling va unga amal qiling.

Odobli bolaga xos xislatlarni ayting.

- Fikringizni bayon qilish uchun quyidagi so‘zlardan foydalaning: *halol, kamtarin, odobli, xushmuomala, qo‘pol, kulgili, adolatli, aqlli, hozirjavob.*

Rasmlarni nomlang va ularni izohlang.



Maqolning oynadagi aksini o‘qing.

Odob – kishining zeb-u ziynati.

Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Odobli bola qanday bo‘ladi?



Audiomatnni diqqat bilan tinglang.

3

Savollarga javob bering.

1. Rivoyatda kimlarning suhbati berilgan?
2. Luqmoni Hakim ketayotganida kimni uchratib qoldilar?
3. Ular boladan eng avval nimani so‘radilar?
4. Odobning ko‘rki nimada ekan?
5. Odamlarning eng mehriboni kim?
6. Ayting-chi, ota-onani hurmat qilish deganda nimani tushunasiz?
7. O‘ylab ko‘ring, bir-biriga sizlab muomala qilishning yaxshi tomonlarini ayting.
8. Nima uchun adolat mustahkam bino deya ta’riflanadi?
9. Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

Yodda tuting!

Dialog – ikki kishi o‘rtasidagi suhbat.



Luqmoni Hakim va bolaning suhbatini rollarga bo‘lib o‘qing.

– Kimning o‘g‘lisan?
– Odobli, hurmatli otaning o‘g‘liman.
– Odobning ko‘rki nimada?
– Assalomu alaykumdadir.
– Odamlarning eng mehriboni kim?
– Ota-ona. Ularni hurmat qilish har bir farzandning burchidir.
– Yaxshi so‘zning chiroyi nimada?
– Bir-birini sizlab muomala qilishda.
– Odobli odamning qudrati nimada?
– Aqli komil bo‘lganida.
– Ul qanday binodurki, hech xarob bo‘lmas?
– Adolat.



Izohli lug‘at:

xarob bo‘lmas – vayron bo‘lmas
adolat – odilona ish tutish



Yashiringan so‘zlarni aniqiang.

assalomualaykumehrostgo‘yaxshillatozaxloq



Odob haqidagi maqoilardan yod oling.

Sizningcha, qaysi xatti-harakatlar tufayli inson hurmatga erishadi?



Sher bilan Durroj

To‘qayda Sher bilan Durroj ahil yashar, biroq Durroj yolg‘onchi edi. U do‘sti Sherni ko‘p marta aldagan edi. Sher unga yolg‘onchilikni tashlashni maslahat berardi.

Lekin Durroj bu odatini tashlamasdi. Bir kuni Durroj ovchining to‘riga tushib qoldi. U do‘stini yordamga chaqirdi. Sher “Durroj yolg‘ondan chaqiryapti”, deb o‘ylab yordamga kelmadi. Shu tariqa Durroj o‘z yolg‘onining qurboni bo‘ldi.

Alisher Navoiy

Savollarga javob bering.

1. Durrojning qanday odati bor edi?
2. Nega Durroj o‘z yolg‘onining qurboni bo‘ldi?
3. Asardan qanday xulosa chiqardingiz?

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Izohli lug‘at:

ahil – inoq
Durroj – qirg‘ovul

Topshiriqlarni bajaring.

Asar qahramonlariga ta’rif bering.
Quyidagi so‘zlar bilan boshlanadigan gaplarni topib o‘qing.
Sher unga… *Bir kuni…* *Sher “Durroj”…*
Yolg‘on so‘ziga qarama-qarshi ma’noli so‘z toping.

Yodda tuting!

Hamisha rost so‘zlang.
Rostgo‘ylik – inson ko‘rki.

Tartibsiz berilgan harflarning o‘rnini topib, maqolni o‘qing.

g‘onYolning rium – qaqis.
Rsot niso‘z tay, g‘onyol danso‘z aqyt.

Mazmunini tushuntiring.

O‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Asar qahramonlariga o‘xshagan insonlarni uchratganmisiz? Ularga qanday maslahat bergan bo‘lardingiz?

Orastalik nima?

Orastalik insonning ozodaligi, kiyinishi, odob-axloqi, yurish-turishi, buyumlarini tartibli saqlashida himoya bo‘ladi. Orasta insonga hammaning havasi keladi.

- Siz o‘zingizni orasta inson deb hisoblaysizmi? Nima uchun?

Orasta bo‘ling!



Qanday yaxshi, bolalar,
Tozalik, orastalik.
Go‘zal xulq, odob bilan
Hamisha payvastalik.



Sahar turib uyqudan,
Muzday suvga yuz yuvmoq.
Qiziguncha to badan,
Yo‘lakchada yugurmoq.





Ozoda-yu orasta,
Ko‘rkam bo‘ling, sog‘ bo‘ling.
Ko‘rgan bo‘lsin havasda,
Doim ko‘ngli chog‘ bo‘ling!

Muhiddin Omon





Savollarga javob bering.

1. Orastalik deganda nimani tushundingiz?
2. She'r orqali shoir bolalarga nima demoqchi?



Izohli lug'at:

payvasta – o'zaro bog'langan
chog' – shod,· xursand



Topshiriqiarni bajaring.

- *"Ozoda"* so'ziga ma'nodosh so'z toping.
- *"Chiroyli"* so'zining ma'nodoshi ishtirok etgan misralarni topib o'qing.



Quyidagi qoidalarni o'qing va ularga amal qiling.

1. Alohida sochiq va ro'molchadan foydalaning.

2. Kiyimlarni va paypoqlarni o'z vaqtida almashtiring.



She'rni yod oling.

Rasmdagi voqeaga o‘z munosabatingizni bildiring.



Ochko‘zlik

Bir bola ko‘chada yig‘lab o‘tirgan edi. O‘tib-ketib turgan kishilardan biri: “O‘g‘lim, senga nima bo‘ldi? Nega muncha yig‘layapsan?” – deb so‘radi.

Bola: “Bir tiyin pulim bor edi, yo‘qotib qo‘ydim. Shuning uchun yig‘layapman”, – deb javob berdi. U kishining bolaga rahmi kelib, “Mana, o‘g‘lim, puling yo‘qolgan bo‘lsa, men senga boshqasini berarman”, – deb cho‘ntagidan pul chiqarib bolaga berdi.

Bola pulni olgach, yana avvalgidan ortiq yig‘lay boshladi. U kishi: “Yana nimaga yig‘laysan?” – desa, bola: “Oh, otajon! Agar o‘z pulim yo‘qolmaganida, hozir pulim ikki tiyin bo‘lar edi”, – dedi.

Abdulla Avlonly

Savollarga javob bering.

1. Hikoyada ishtirok etgan bolaga qanday baho berasiz? Nima uchun?
2. Hikoyaga yana qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz?
3. Agar siz bolaning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz? Fikringizni izohlang.

Izohli lug‘at:

fazilat – yaxshi xulq
illat – yomon odat, nuqson

Quyidagi so‘zlarni ikki guruhga ajrating:

tartibli, dangasa, g‘ayratli, mehribon, yolg‘onchi, to‘g‘riso‘z, maqtanchoq, qo‘rqmas, jasur, shirinso‘z, qo‘pol, muloyim, mahmadona, kamtarin.

fazilat	illat

Yodda tuting!

Yaxshi fazilatlar kishilar tomonidan ardoqlab kelinayotgan ibratli xislatlardir. Yaxshi xislatlar egasi bo‘lishga intiling!

Hikoyani o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Yashiringan so‘zlarni toping.

QUMAQTANCHOQYON

- Maqtanchoq bo‘lish yaxshimi? Nima uchun?

Maqtanchoq quyon

Ertak

Kunlardan bir kun maqtanchoq ola quyon sheriklariga:

– Bo‘ridan qo‘rqmayman, tulkini bir puflab osmonga uchirib yuboraman, – debdi.

Birdan bo‘ri kelib qolibdi va quyonlarga tashlanibdi. Ola quyon hammadan oldin o‘zini eshikka uribdi. Bo‘ri uning yo‘lini to‘sibdi. Ola quyon zo‘rg‘a qutulib, bir necha vaqt changalzorda yotibdi. U kech kirganda uyga kirib boribdi.

– Xayriyat, omon ekansan. Bo‘riga yem bo‘lgansan deb o‘ylagan edik, – deyishibdi quyonlar.



Ola quyon maqtanib ketibdi:

– Yem bo‘lib bo‘bman! Boshiga chiqib bir tepdim, til tortmay o‘lib qoldi!

– Rahmat senga, ola quyon, bo‘ridan qutulibmiz, – debdi quyonlar.

– Ha, butunlay qutuldinglar, – debdi kerilib ola quyon va bo‘ri poylab turmaganmikan deb, xavotirlanib atrofga qarab qo‘yibdi.



Savollarga javob bering.

1. Ertakda qanday voqea yuz beribdi?
2. “O‘zini eshikka uribdi” deganda nimani tushundingiz?
3. Nima uchun ola quyon atrofga xavotirlanib qaradi?



Izohli lug‘at:

kerilmoq – maqtanmoq



Maqollarni ertak mazmuniga bog‘lang.

1. **Maqtanchoq – pand yeydi, Kamtarin – qand yeydi.**
2. **Kerilma g‘oz, hunaring oz.**



Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.



- Vaqtdan unumli foydalanish uchun nima qilish kerak?
- Siz kun tartibiga rioya qilasizmi?

Fursat – g‘animat

Daftari ochiq-sochiq,
Qolgan vazifa chala.
Soat yurar chiq-chiq-chiq,
Yechilmagan masala.

Yana jaranglab soat,
To‘qqizga zang uradi.
Salimjon-chi, betoqat,
Endi shoshib turadi.



Salimjon juda nimjon,
Hech bir ishga “vaqti yo‘q”.
Badantarbiya qayda?
Yuvinishga “vaqti yo‘q”.

Darslari o‘lda-jo‘lda,
Qolgan ishga yog‘ar qor.
Kun tartibin foydasin
Bilmaslikdan qiling or!

Shukur Sa’dulla

Savollarga javob bering.

1. She’r qahramoni haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Nega Salimjonning hech bir ishga vaqti yo‘q ekan?
3. *“Qolgan ishga qor yog‘ar”* deganda nimani tushundingiz?
4. Kun tartibining salomatlikka foydasi haqida nimalarni bilasiz?

Izohli lug‘at:

or qilish – o‘ziga ep ko‘rmaslik
fursat – vaqt
g‘animat – qaytmaydigan vaqt

Qofiyadosh so‘zlarni aniqiang.

chala-	soat-
turadi-	qor-

Abdulla Avloniyning hikmatli so‘zini o‘qing.

Intizom – qiladigan ishlarimizning har birini o‘z vaqtida tartibi bilan qilishdir.

- Hikmatli so‘zning mazmunini bugungi dars mavzusiga bog‘lang.

So‘zlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda o‘qing.

Har bir ishning vaqti bor,
Vaqt baxti bilganning bor.

- Hosil bo‘lgan maqolni izohlang.

She’rni ifodali o‘qing. Vaqt haqidagi maqoilardan yod oling.

Yaxshilik qilish deganda nimani tushunasiz?

Mehribonlik deganda nimani tushunasiz?

Axloq

Rivoyat

Suv, Olov va Axloq – uchovi do‘st tutinishibdi. Bir kuni ular sayrga chiqishibdi. Bir-birlaridan xavotir olib, Suvdan so‘rashibdi:

– Agar yo‘qolib qolsang, seni qayerdan topamiz?

– Qayerda sharillash ovozini eshitsangiz, men o‘sha yerda bo‘laman, – debdi Suv.

So‘ngra Olovdan so‘rashibdi:

– Seni yo‘qotib qo‘ysak, qayerdan topamiz?

– Qayerda tutun ko‘rsangiz, men o‘sha joyda bo‘laman, – debdi Olov.

Navbat Axloqqa kelganida, u shunday javob beribdi:

– Meni yo‘qotsangiz, izlab yurmang. Hech qayerdan topa olmaysiz...

Savollarga javob bering.

1. Rivoyat qahramonlari haqida nima deya olasiz?

2. Suv bilan Olovni qayerdan topish mumkin ekan?


3. Axloqning “Meni yo‘qotsangiz, izlab yurmang. Hech qayerdan topa olmaysiz”, degan so‘zlaridan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Izohli lug‘at:

xavotirlanmoq – tashvishlanmoq

Rivoyatni rollarga bo‘lib o‘qing.

Harflarni o‘z o‘rniga qo‘ying va yashiringan so‘zlarni toping.



Rivoyatni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Go‘zal odob, a’lo xulq

Chin yurakdan tirishsang,
A’lo o‘qishing mumkin.
Bilganlaring, ehtimol,
Yodingdan chiqar bir kun.

Go‘zal odob, a’lo xulq
O‘rnashsa yuragingga,
Seni mangu tark etmay,
Yetkazar tilagingga.

Qambar O‘tayev

She’rni o‘qing.

She’rdan chiqargan xulosangizni ayting.



Savollarga javob bering.

1. Bo‘limdagi qaysi asarlar sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?
2. Bo‘lim yakunida qanday xulosa chiqardingiz? Fikringizni izohlang.

Nuqtalar o‘rniga sehrli so‘zlardan mosini qo‘ying.

1. Ko‘ksimda mening qo‘lim, ...
2. Chaqirsa ayting menday
   Sehrli so‘zdir: “...”.
3. Yordamga keladi, soz
   Kulib desang: “...”.
4. Ko‘mak berganga har vaqt,
   Deymiz bizlar ko‘p “...”.
5. Ketib qolmagin Tohir,
   So‘nggi so‘zni ayt: “...”.



Quyidagi tushunchalarga ta’rif bering.

yaxshilik | illat | fazilat | odob-axloq | orastalik

Rasmdagi voqeaga o‘z munosabatingizni bildiring.



- Siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?
- Atrofdagi insonlarga qanday yordam ko‘rsatasiz?

Maqollarni jamlang. O‘zingizga ma’qul kelgan maqolni tanlang. O‘z tanlovingizni tushuntirib bering.

Yaxshilikni	yaxshilik topasan.
Hayot	boylikdan qimmat.
Yaxshilik qilsang,	yaxshi odamlar amalga oshiradi.
Tinchlik	asrlar davomida yashaydi.
Yaxshi so‘zlar	yaxshiliklar uchun berilgan.

Qilgan yaxshi ishlaringiz ro‘yxatini tuzing. Yaxshilik qilish qiyinmi?



VIII bo‘lim.
Yoz – o‘tadi soz

Ayting-chi, yoz boshqa fasllardan nimasi bilan farq qiladi?



Yoz

Bahorning tansiq ne'matlaridan qulupnay, tut, gilos pishib tugagandan so'ng yoz boshlanadi. Ertalabdanoq quyosh porlab chiqadi. Soylardagi suvlar choshgohga borib-bormay quyosh shu'lalaridan jimirlab, isiy boshlaydi. Kechalar qisqa, kunduzlar uzun bo'ladi.

Dehqonlarning ishi ham qizigandan qiziydi. Bog'larda chillaki uzumlar, yozgi olmalar g'arq pishadi.

Polizlar yonidan o'tganda qovun-tarvuzlarning shirin hidlari ishtaha ochadi.

Avgust o'rtalaridan boshlab havo harorati pasayadi. Anjirlar-u husayni uzumlar pishib, bozorlarimiz noz-ne'matga to'lib ketadi.

Qutlibeka Rahimboyeva

Savollarga javob bering.

1. Yoz fasli qachon boshlanadi?
2. Bu faslda qanday meva, sabzavot va poliz ekinlari pishib yetiladi?

3. Matnda uzumning qaysi navi tilga olingan? Uning yana qanday navlarini bilasiz?

4. Ayting-chi, yozda tabiatda yana qanday o‘zgarishlarni kuzatgansiz?

Izohli lug‘at:

ne’mat – tabiat in’om etgan yeguliklar
porlamoq – kuchli nur sochmoq
choshgoh – quyosh ancha ko‘tarilib qolgan vaqt

Matn nechta gapdan iboratligini sanang. Quyidagi gaplarni saralab o‘qing.

1, 3, 5, 7, 9. 2, 4, 6, 8.



Topishmoqlarning javobini toping.


Marjon-marjon, yumaloq,
Yaproqlari shapaloq.
Qora, qizil, sariq, oq,
Yeb ko‘rmasdan o‘ylab top.

Osti sariq, usti sariq,
Shirin, totli, ichi tariq.

Maqolning mazmunini mavzuga bog‘lang.

Yoz mevasi – qish xazinasi.

Matnni o‘qing. Yoz faslini ifodalab, rasm chizing.



Yozda pishadigan mevalar bilan savatni to‘ldiring.



- Siz mevalar haqida qanday ma’lumotga egasiz?

Ichburug‘

Saratonda, mevalar
G‘arq pishgan yoz oyida,
Ichburug‘jon zerikib,
Qolibdi o‘z joyida.

– G‘uldur-g‘uldur, bu nima,
Yotamanmi burchakda?
Ov mavsumi boshlandi,
Mening joyim ichakda.

Oshqozonga yo‘l topib
Olsam, qalbim quvnaydi.
Ehhe, qancha bolalar
Qo‘llarini yuvmaydi.



Oziq-ovqat, o‘yinchoq –
Barchasida hozirman.
Yuqumli kasalliklar
Ichra katta nozirman.



Qolib ketar o‘yinlar,
Ta’tillar ham tatimas.
– Qorningizni changallang,
Ichburug‘ anoyimas!



Mana, qarang, turibmiz
Artilmagan olmada.
Kela qoling, Zumradoy,
Maftuna-yu Xolida.

Hovuzchada cho‘milgan
Hamdamga ham yopishdik.
Ehhe, qancha mikroblar
Ko‘lmak suvda topishdik.

Sanar bo‘lsam birma-bir,
O‘nta daftar to‘ladi.
Yoz maza-da! Har kuni,
Bizga bayram bo‘ladi...

Muazzam Ibrohimova

Savollarga javob bering.

1. Ichburug‘ haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Sizningcha, ichburug‘ qayerda yashirinib olgan?
3. Nega yoz faslida ichburug‘ uchun bayram bo‘ladi?
4. O‘ylab ko‘ring, bu kasallik bilan og‘rimaslik uchun nima qilish kerak? Tavsiyalaringiz bilan o‘rtoqlashing.

Izohli lug‘at:

changallamoq – qo‘l bilan mahkam ushlamoq
anoyimas – sodda emas
nozir – nazorat qilib turuvchi

Topshiriqiarni bajaring.

- She’rdan ichburug‘ning gaplarini o‘qing.
- She’rda ishtirok etgan bolalarning ismlarini ayting.
- Ismlar ishtirok etgan to‘rtliklarni o‘qing.

She’rni ifodali o‘qing.

Sayohatga chiqqaningizda qanday qoidalarga amal qilasiz?

Ta’tilda

Biz dam oldik rohatlanib,
Yurtning ko‘rkam bog‘ida.
Sof havodan ichdik qonib,
Kezib yuksak tog‘ida.

Goh o‘qidik qiziq kitob,
Goh anhorda cho‘mildik.
Charaqlagan saxiy oftob
Nurlariga ko‘mildik.

Vatan doim g‘amxo‘r bizga,
Quvnoq o‘tdi go‘zal yoz.
Biz baxtiyor o‘g‘il-qizga
Yilning hamma fasli soz.

Ne’matullo Zoirov

Savollarga javob bering.

1. She’r kimning nomidan aytilgan?
2. Bolalar ta’tilda nima qilishibdi?
3. Ta’til quvnoq o‘tishi uchun yana nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?



Izohli lug‘at:

g‘amxo‘r – qayg‘uradigan



She’rning mazmunini gaplar bilan ifodalang. Qofiyadosh so‘zlarni aniqlang.

bog‘ida-	kitob-	yoz-
cho‘mildik-	qonib-	bizga-



She’rdan quyidagi so‘zlarga ma’nodosh so‘z toping.

toza	yaxshi	chiroyli



Maqolni o‘qing.

Yoz – dam olishga soz.



Tez aytish.

Tonggi toza havo,
Tanangga koni davo.



She’rni yod oling.

Topishmoqning javobini toping.

To‘kinlikda noz-ne’mat,
Qaysi fasl, ayt, Hikmat?

Bo‘g‘inlarni raqamlar ketma-ketligida joylashtiring va maqolni o‘qing.

1	5	2	6	3	7	4	8
yax	nat	shi	ga	dam	ham	meh	dam

7	5	4	3	1	2	6
qil	tak	sang	ta	ilm	is	ror

2	4	1	9	6	8	7	5	10	3
nab	pir	o‘y	ga	ham	lab	o‘y	sang	pir	ga

Savollarga javob bering.

1. O‘quv yili davomida qaysi bo‘limlar bilan tanishdingiz?
2. O‘rgangan asarlaringizdan qaysi biri sizga ko‘proq yoqdi?
3. Yil davomida yod olgan she’rlaringizdan ayting.

“Yozgi ta’til uchun rejalarim” mavzusida matn tuzing.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

V bo‘lim. U – kim, bu – nima?

Ajdodlar – bizning faxrimiz 4
Olamga mashhur Sohibqiron 6
Siz xabarni qanday jo‘natasiz? 8
Yulduzlar siri 12
Yulduzlar ilmini o‘rgangan bobom 15
Koinotga parvozlar 18
Zahiriddin Muhammad Bobur 21
Suv tomchisining sayohati 23
Ajoyib so‘zlar 25
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 27

VI bo‘lim. Xalq og‘zaki ijodi – behisob xislat koni

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar 30
Ertaklardan ol saboq 33
Zukko bo‘lgin, bolajon 35
Rivoyatda ibrat bor 37
Qo‘shiqqa bo‘lamiz jo‘r 39
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 41

VII bo‘lim. Qanday yaxshi, bolalar Go‘zal xulq, orastalik

Odobning boshi – til 44
Kiyinish odobi 46
Odobli bola 49
Rostgo‘ylik – inson ko‘rki 51
Orastalik qanday soz 53
Yomon odatlardan saqlaning 55
Maqtanchoq bo‘lmang 57
Vaqtdan unumli foydalaning 59
Yaxshilik qilish – odob-axloqdandir 62
Bo‘lim yuzasidan takrorlash 64

VIII bo‘lim. Yoz – o‘tadi soz

Yoz – naqadar soz 68
Mevalar g‘arq pishgan mahalda 72
Quvnoq o‘tsin go‘zal yoz 75
O‘tilganlarni mustahkamlash 77

Kitobni asrang!

Kitob – insonning eng yaqin yordamchisi. Kompyuter va gadjetlar ishdan chiqishi mumkin, ammo kitob doim biz bilan birga bo‘ladi. Kitob bizning do‘stimiz va ustozimiz hisoblanadi. Kitoblarni yaratish uchun ko‘plab insonlar mehnat qiladilar. Biz ajdodlarimizning dono o‘gitlarini kitoblar orqali o‘rganamiz. Ular hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlashimizda bizga yordam beradi. Agar kitobni asrab-avaylasak, u ko‘plab insonlarga uzoq yillar xizmat qiladi.

Kitob bizni bilim va quvonchlar bilan limmo-lim o‘zga bir tasavvurlar olamiga yetaklaydi. Vaqti kelganda u bizni Yer yuzidagi kichik hujayralardan tortib, okean hamda koinotda kechadigan turli voqea-hodisalar va ularning sirlaridan voqif qiladi.

Kitob bizni o‘ylashga, fikr yuritishga va to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi.



U.B.Aydarova

O‘qish savodxonligi

1-sinf

II qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”
Toshkent – 2023

Muharrirlar:	*M. Nishonboyeva, Sh. Muslimova*
Badiiy muharrir	*A. Sobitov*
Musahhih	*X. Serobov*
Rassomlar:	*D. Vetokhina, S. Sharapova*
Kompyuterda sahifalovchi	*S. To‘ychiyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 07.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli.
“Arial” garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo‘rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m2 qog‘oz.
Shartli b.t. 5. Hisob-nashriyot t. 1,52.
Adadi 626 981 nusxa. Buyurtma raqami 23-573.
“O‘zbekiston” NMIUda chop etildi.